


# Фарғона водийсидаги трансчегаравий кичик дарёларнинг чизиқли схемаси






## Фарғона водийсидаги кичик дарёлар

Дарё ва сойлар номлари	Узунлиги, км	Сув йиғиш майдони, км <sup>2</sup>	Ўртача йиллик сув сарфи, м <sup>3</sup> /с
Исфайрамсой	122	2220	17,7
Шохимардон	112	1300	9,34
Кўксув	22	175	2,02
Подшаота	130	443	5,18
Чаначсой	130	152	1,76
Косонсой	127	1780	7,48
Урюкти	28	119	0,73
Олабуқа	40	225	0,38
Сумсар	86	329	0,88
Кўксерек	36	176	0,76
Ғовасой	96	724	4,94
Оқсув	20	-	3,37
Чодаксой	70	566	4,38
Марғилонсой	116	-	11,2
Сўх	124	3510	49,2







Daryo nomlari	Uzunligi, km	Suv yig'ish maydoni, km <sup>2</sup>	O'rtacha yillik suv sarfi, m <sup>3</sup> /s
Oqbura	136	2540	6,23
Aravansoy	102	1960	5,88
Obshirsoy	62	230	1,03
Maylisu	87	748	10,9
Isfayramsoy	122	2220	17,7
Shaximardonsoy	112	1300	9,34
Podshaotasoy	130	443	5,18
Chanoch	130	152	1,76
Kasansoy	127	1780	7,48
Alabuqa	40	225	0,38
Sumsarsoy	86	329	0,88
Kokseraksoy	36	176	0,76
G'ovasoy	96	724	4,94
Chadaksoy	70	566	4,38
Isfara	107	2480	15,28
Marg'ilonsoy	116	-	11,2
So'x	124	3510	49,2

# Podshaota daryosi suv oqimining asosiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1	Ko'p yillik o'rtacha suv oqimi	176.70 mln.m <sup>3</sup> /yil
2	Ko'p yillik eng ko'p suv oqimi	238.42 mln.m <sup>3</sup> /yil
3	Ko'p yillik eng kam suv oqimi	133.40 mln.m <sup>3</sup> /yil
4	O'rtacha yillik suv sarfi	5,58 m <sup>3</sup> /s



# Gidrologik elementlar o'rtacha yillik qiymatlarining o'zgarishi va undagi davriyliklarni o'rganish uchun Farg'ona vodiysining ba'zi daryolari bo'yicha suv sarfining oddiy xronologik grafiklari chizildi.



## Farg'ona vodiysi daryolari oqimi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin

- 1. Aksariyat daryolarda oqim me'yordan oz, ya'ni kamsuv yillar soni sersuv yillar sonidan ko'p. Ayniqsa, Chodaksoy, G'ovasoy, Isfayramsoy, Ko'ksuvda farq katta. Sersuv yillar sonining kamsuv yillar sonidan ko'pligi faqat So'x va Tentaksoyga xos. Buning asosiy sababi, sersuv yillarda oqim miqdorining me'yordan musbatlik farqi kamsuvlikdagi suv sarfining me'yordan manfiylik farqiga nisbatan kattaligidir.
- 2. Daryolarning ko'pchiligida sersuvlik ham, kamsuvlik ham alohida bir yilda ro'y berish hollari ko'p. 2-3 yil davomida kuzatiladigan sersuvlik va kamsuvlik davrlari ham anchagina. 4-8 yil davomida kuzatiladigan kamsuv davrlarning takrorlanishi ham sezilarli bo'lgani holda, bunday sersuv davrlar takrorlanishi kam. Eng ko'p cho'zilgan sersuv davr 13 yilni, kamsuv davr esa 11 yilni tashkil etgan. Bunday cho'zilgan sersuv yillar seriyalari ko'proq 1990 yildan keyingi davrga xos, kamsuv yillar seriyalari esa undan odingi davrlarda uchraydi.
- 3. Ba'zi daryolarda, masalan, Kasonsoy va Isfayramsoyda alohida bir yilda kuzatilgan kamsuvlik juda kam - faqat 1 martadan ro'y bergan. Umuman olganda bir yillik kamsuv yoki sersuv seriyalar kuzatish yillarining oz qismini (< 30%) tashkil etadi.
- 4. Xronologik grafiklarni bir-biriga solishtirish shuni ko'rsatadiki, daryolar oqimidagi tebranishlar sinxronlikdan ancha yiroq. Ikki daryo suv sarflari o'rtasida korrelyasiya koeffitsientlari yuqori bo'lgan taqdirda ham yetarli darajada asinxronlik mavjud. Misol uchun G'ovasoy va Chodaksoylarning yillik suv sarflari orasidagi bog'liqlikning korrelyasiya koeffitsienti  $0,90 \pm 0,03$  bo'lsa ham, ulardagi sersuv va kamsuv yillar hamma vaqt mos kelavermaydi.
- 5. Turli darajadagi tadqiqotlarda aniqlanishicha daryo oqimining tebranishlari 2-3, 5-7, 10-12, 22-28 yillik sikllarga ega. Vodiy daryolari bo'yicha yillik suv sarfi tebranishlari bunga anchagina qo'shimcha qilishi mumkin. Misol uchun, Chodaksoy bo'yicha 4 yillik sikl (2+2, 1+3) ni, G'ovasoy bo'yicha 8-9 yillik siklni, So'x bo'yicha 5 yillik siklni qo'shish mumkin.